

## IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'LLARI VA BOSQICHLARI

**Xolbekov Sayfulmalik****Mamasoatov Nursulton***Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti  
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** *iqtisodiyotning liberallashtirilishi bu davlatni nomarkazlashtirish bo'lib, uning iqtisodiy boshqaruvdagi funksiyalarini o'zini o'zi boshqarish tashkilotlariga, xususiy sektorlarga o'tib borishini anglatadi. Ushbu jarayonda ikkita muhim strategik vazifani hal qilish zarur. Avvalo, xususiylashtirilayotgan mulk haqiqiy mulkdorlar qo'liga berilishi kerak. Chunki iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish uchun real shart-sharoitlar yaratishga imkon tug'dirilishi milliy ongning o'sishi va tafakkur taraqqiyotiga olib keladi.*

**Kalit so'zlar:** *liberallashtirish, xususiy sektor, professional diagnostika, monopol, texnologik rivojlantirish.*

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, ayniqsa, tadbirkorlik harakatiga keng yo'l ochib berishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, iqtisodiyotning liberallashtirilishi bu davlatni nomarkazlashtirish bo'lib, uning iqtisodiy boshqaruvdagi funksiyalarini o'zini o'zi boshqarish tashkilotlariga, xususiy sektorlarga o'tib borishini anglatadi. Ushbu jarayonda ikkita muhim strategik vazifani hal qilish zarur. Avvalo, xususiylashtirilayotgan mulk haqiqiy mulkdorlar qo'liga berilishi kerak. Chunki iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish uchun real shart-sharoitlar yaratishga imkon tug'dirilishi milliy ongning o'sishi va tafakkur taraqqiyotiga olib keladi. Navbatdagi, iqtisodiyotda ko'p ukladlilikni hamda raqobat muhitini yaratish orqali davlatning mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarini barpo qilishdir. Bu, o'z navbatida, jamiyat turmush sharoitiga bevosita ta'sir ko'rsatib, odamlarning xususiy mulkka nisbatan qarashi o'zgarishi, ijtimoiy ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, davlat mulki xususiylashtirilib, kichik biznesning rag'batlantirilishi tufayli jamiyatda mulkdorlarning yangi qatlami vujudga keladi. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan islohotlarning yangi bosqichida iqtisodiyotda davlat ishtiroki bosqichma-bosqich kamaytirilayotgani quvonarlidir.

Iqtisodiyot professional diagnostika asosida tahlil etilib, strategik harakatlar samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2017 yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil qildi, eksport hajmi qariyb 15 foiz ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 854 million AQSh dollariga yetkazildi.

Agar mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanilsa, iqtisodiy ko'rsatkichlar muttasil oshib boraveradi. Buning uchun iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda yangilash tadbirlarini yanada jadallashtirish zarur. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mamlakatimiz gaz va elektr energiya sohasidagi kapitalning texnologik eskirganligi hamda modernizatsiyalashtirilmaganligi sababli gaz ishlab chiqarishda tabiiy gazning 23 foizgacha, elektr uzatishlarda esa elektr energiyasining 20 foizgacha isrof bo'layotgani juda achinarlidir. Bebaho boyliklarimiz behuda yo'qotilishining oldini olish uchun texnologik qoloq hamda samarasiz ishlab chiqarish jarayonidan voz kechishimiz darkor. Zero, kapital yangilanmas ekan, texnologik rivojlanish ham bo'lmaydi. Ammo kapital yangi bo'lgani bilan uning ishlash texnologiyasi eski bo'lsa, uning ham samarasi sezilmaydi. Buning yana bir salbiy oqibati shuki, malakali kadrlarga bo'lgan talab ham pasayib boraveradi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotimizda yig'ilib qolgan bunday muammolarni bartaraf etish uchun bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar qatorida, O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerakligini alohida ta'kidladilar. Bunday dasturning yaratilishi mamlakatimizda ilm-fan hamda texnologiyaning rivojlanishi va iqtisodiyotimizni modernizatsiyalashga ulkan hissa qo'shadi.

Darhaqiqat, dunyoda ilm-fan hamda texnologiyani rivojlantirish dasturlari va ularning yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish orqali o'z taraqqiyot yo'lini mustahkam qurgan davlatlar ko'plab topiladi. Janubiy Koreya — ana shulardan biri. O'tgan asrning 60-yillarida dunyoning qashshoq mamlakatlari safida bo'lgan ushbu davlat texnologik rivojlanish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish orqali jahonda yetakchilardan biriga aylandi. Xuddi shunday hayotiy dasturlar orqali Malayziya, Xitoy ham qoloq va agrar mamlakatdan sanoati taraqqiy topgan, jadal rivojlanayotgan davlat sifatida shakllandi. Ular rivojlangan davlatlar safidan tushmaslik uchun mudom kuchli raqobatga kirishish, o'z pozitsiyasini yo'qotib qo'ymaslik payidan bo'ladi. Tabiiyki, bunda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan, texnologik o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan milliy dasturlar qo'l keladi.

Hozirgi globallashuv hamda kuchli raqobat muhiti mamlakatlar oldiga innovatsiyalar va texnologik o'zgarishlarni izchil amalga oshirish vazifasini qo'ymoqda. Ana shu jihat inobatga olingan holda, yurtimizda innovatsion faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratilayapti. Kuchli milliy dastursiz modernizatsiyalash tadbirlari izchil bo'lmasligi aniq. Shu bois ham texnologik o'zgarishlarni zamon talablariga to'liq javob beradigan darajaga ko'tarish uchun milliy dastur yaratilishi g'oyat muhimdir.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM (YaIM) ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'zining iqtisodiy rivojlanish modelini izchil amalga oshirishi natijasida, boshqa sobiq ittifoqi mamlakatlariga nisbatan eng qisqa muddatlarda, ya'ni 1996 yildayoq iqtisodiy tanazzulning oldini oldi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq asosiy iqtisodiy masalalarni amalga oshirishga kirishdi. O'zbekiston iqtisodiyoti 1996-2003 yillar davomida o'rtacha yillik 4foiz o'sish darajasi bilan rivojlandi. Iqtisodiyotning turli xil tarmoqlari va sohalarini tarkibiy o'zgartirish, qulay ishblarmonlik muhitini yaratish, tarmoqlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004 yildan boshlab yillik 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6
2. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.
3. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.
4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92. 5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014. - 110 с

#### **INTERNET SAYTLARI:**

arxiv.uz  
kutubxona.uz